

**TASVIRIY SAN’ATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI VA UNI
O‘RGATISH METODIKASI**

Oydinov Sharip Baxronovich

Samarqand davlat universiteti o‘qituvchisi.

sh.oydinov1972@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tasviriy san’atni vatanimiz hududida yuksak darajada rivojlanganligi hamda tasviriy san’atning inson hayotida beqiyos tutgan o‘rni o‘rganilgan. Shuningdek tasvirlash sirlarini o‘rgatish, tasviriy san’at asarlari bilan tanishish va badiiy tahlil qilishda yuzaga kelayotgan ba’zi muammolarni bartaraf etishning dastlabki bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san’at, Afrosiyob, Bolaliktepa, Varaxsha, rangtasvir san’ati, devoriy suratlar, miniatyura, natyurmort, oddiy qalam, metodika, estetik, ta’lim, tarbiya, go‘zallik.

Роль изобразительного искусства в жизни человека и методы его преподавания.

Аннотация. В данной научной статье рассматривается высокий уровень развития изобразительного искусства и уникальная роль изобразительного искусства в жизни человека нашей страны. Также освещаются начальные этапы обучения секретам живописи, знакомство с произведениями изобразительного искусства, преодоление некоторых проблем, возникающих при художественном анализе.

Ключевые слова: Изобразительное искусство, Афросиаб, Болаликтепа, Варахша, живопись, росписи, миниатюры, натюрморты, простой карандаш, методика, эстетика, образование, воспитание, красота.

The role of fine arts in human life and methods of teaching it.

Abstract. This scientific article discusses the high level of development of fine arts in our country, the unique role of fine arts in human life. It also covers the basics of teaching the secrets of painting, getting acquainted with works of fine art, and overcoming some of the problems that arise in artistic analysis.

Keywords: Fine Arts, Afrosiyob, Bolaliktepa, Varakhsha, painting, murals, miniatures, still lifes, simple pen, methodology, aesthetics, education, upbringing, beauty.

Mamlakatimiz bugungi kunda har tomonlama jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda. Yurtimizda bo’layotgan taraqqiyot jarayoni ilm-fan va madaniyatning barcha sohalarida bo’lgani kabi tasviriy san’at sohasini ham chetlab o’tgani yo’q.

Tasviriy san’at eng qadimiy va keng tarqalgan san’at turlaridan biridir. Tasviriy san’at asarlari qaysi tur va janrda yaratilgan bo’lishidan qat’iy nazar ular kishilarning his tuyg’usiga, ruhiyatiga ijobiy ta’sir etadi. Ma’naviy go’zallik, ezgulik, estetik did hadiya etadi. Tasviriy san’at voqealik va borliqni shakllar, chiziqalar, rangli bo’yoqlar orqali ma’lum bir tekislikda, yuzada va hokozalarda haykaltarosh yoki rassomlar tomonidan tasvirlanadigan san’atdir.

Tasviriy san’at ibtidoiy davrdan boshlab rivojlanganligi bizga yozma manbalardan, o’lkamiz hududidan topilgan haykaltaroshlik namunalardan, turli g’or devorlariga ishlangan suratlardan ma’lum. Ibtidoiy jamoa davrida ham dastlab odamlar hayotida tasvirlar o’zaro muloqot qilishlari uchun zarur bo’lgan. Ibtidoiy odamlar yashagan davrlarda qoya va toshlarga o’z tasavvurlarini tushurganlar. Ular bu tasvirlar orqari o’z fikrlarini bayon qilganlar. N. Oydinov o’zining “O’zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar” o’quv qo’llanmasida shunday fikrlarni keltirib o’tadi ...“Masalan, ular ov qurollarini tasvirlash orqali ovga bormoqchi ekanliklarini ifodalasalar, yovvoyi buqa va boshqa turli hayvonlar tasvirlari orqali, o’sha hayvonlarni ovlamoqchi ekanliklarini bildirganlar”... [1]. Inson tafakkuri kamol topgan sari go’zallik hissi ortdi. Keyinchalik turli xil shakl va

tasvirlar orqali yozuv paydo bo‘la boshladi. Qadimdan kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarni tayyorlash zarurati va keyinchalik shu buyumlarni bezash orqali tasviriy san‘at asta-sekin rivojlanadi. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdan ajralib chiqq boshladi. Bu esa fan va san‘at rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san‘atning qadimgi turli namunalari orqali xalqimizning tarixini, e‘tiqodlarini, estetik dunyoqarashini, turmush tarzini o‘rganishimiz mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston hududida topilgan Surxondaryoda Zaravutsoy, Jizzax viloyatida Taqotosh kabi ko‘plab ibtidoiy tasvirlar dastlabki tasviriy san‘at asarlaridan hisoblanadi. O‘zbekiston hududida tasviriy san‘atining rangtasvir namunalari ko‘plab topilgan. Bulardan ayniqsa, Samarqandning qadimiy o‘rnidagi Afrosiyob, Surxondaryoning Bolaliktepa, Buxorodagi Varaxsha devoriy tasvirlarini alohida qayd qilish mumkin.

Afrosiyobdagi qadimgi devoriy rasmlarda rangtasvir san‘atining rang-barang va nafis namunalari mavjud. Rasmdagi tasvirlarda sharq xalqlariga xos ko‘rinishlar ifodalangan. Bu suratlarni kuzatar ekanmiz, rassom devoriy rasmda keng manzarani qamrab olishga intilganini ilg‘aymiz. Bu devoriy suratlar chizilgan xona mehmonxona ekanligi ma‘lum. Rahim Hasanov “Tasviriy san‘at asoslari” qo‘llanmasida: ...“Mehmonxohaning to‘rt tamoniga turli devoriy rasmlar ishlangan. Mehmonxona devorlaridagi rasmlardan birida bir erkak va ayol suhbatlashib o‘tirgani aks ettirilgan. Umuman, mehmonxonaning devorlarida to‘y safari, daryoda cho‘milish, elchilarni qabul qilish marosimi, ov kabilar aks ettirilgan. To‘y safari aks etgan rasmda oq rangdagi filda malika, saman ot mingan shoh-kiyov aks etgan. Shuningdek malikani kuzatib ketayotgan kanizaklar ham tasvirlangan”... [2] deb yozadi. Teparoqda joylashgan manzarada oq qushlar tasviri esa devoriy suratga badiiy mazmun kiritgan. Tasvirda oq qushlarning harakati bir-biriga uyg‘unlashib ketgan. Kompozitsiyaning rangga boy qilib tasvirlanganligidan Afrosiyob tasviriy san‘ati yuqori darajada badiiy yutuqlarga ega ekanligini ko‘ramiz. Devoriy suratlarining juda ko‘p qismi turli sabablarga ko‘ra o‘chib ketgan. Tasvirlardagi turli qush va hayvonlar tasviri anatomik tuzilishiga mos aks ettirilgan.

Bu esa musavvir mahoratidan darak beradi. Afrosiyob devoriy rasmlari nafaqat tasviriy san’atimiz me’rosini, balki butun sharq xalqlari tarixini o’rganishda ham katta ahamiyatga ega.

Termiz yaqinidagi Bolaliktepa yodgorligidan topilgan bino devorlarining to’rtala tomoni ham turli ko’rinishdagi rangdor tasvirlar bilan to’ldirilgan. Bolaliktepa rangtasvir san’atida odamlarning kayfiyati, o’zaro munosabatlari, xarakterlari rassomlar tomonidan o’ta ustalik bilan tasvirlangan. Umuman obrazlarning xatti-harakati, qiyofalaridagi ko’rinishlar qandaydir to’y yoki bayramona marosimni aks ettirmoqda.

Buxoroning qadimgi madaniy markazlaridan biri – Varaxshadan ham devorlari suratlar bilan bezatilgan hashamatli saroy qoldiqlari topilgan. Bu me’morchilik obidasi va undagi san’at namunalari sharq xalqlariga xos madaniy aloqalar qay darajada bo’lganligini o’rganish imkoniyatini ham ko’rsatib beradi. Umuman, tasvirlar rang-barang manzaralar bilan boyitilgan va ma’lum bir go’zallikni o’zida mujassamlashtirgan. Devoriy suratlardagi tabiat manzaralari turli daraxtlar ko’rinishlari bilan o’zgacha ma’no kasb etgan.

Zardushtiylik dini davrida me’morchilik, haykaltaroshlik, rangtasvir, kulolchilik, amaliy bezak san’ati o’ziga xos tarzda rivojlangan. Islom madaniyati kirib kelishi natijasida jonli mavjudotlarni tasvirlash va ularni shaklini yasashga ma’lum darajada to’sqinliklar bo’lgan. Ayniqsa me’morchilik bilan bog’liq amaliy bezak san’ati nihoyatda rivojlangan. Professor Saidaxbor Bulatov “O’zbek xalq amaliy bezak san’ati” kitobida: ...“IX-X asrlarda O’rta Osiyoda naqqoshlik san’ati avj olib rivojlandi. Me’morchilikda g’isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yo’g’och o’ymakorligini qo’llash yuksak darajada rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi”... [3]. deb takidlaydi. Ajdodlarimiz tamonidan yaratib qoldirgan tasvirlarni qanchalik chuqur o’rganar ekanmiz, o’sha davr tasviriy san’at sirlari aniqroq ko’zga tashlanaveradi.

Sohibqiron Amir Temur davriga kelib boshqa sohalar kabi tasviriy san’at ham yuqori darajada rivojlangan. Temur faoliyatidan so‘ng esa Samarqandda Mirzo Ulug‘bek davrida tasviriy san’at yanada rivojlanganligi bizga yozma manbalardan ma’lum. Temuriylar davri nafis tasviriy san’ati haqida o‘zlarining “Miniatyura tarixidan lavhalar” kitobida N. Norqulov, I. Nizomiddinovlar shunday yozadilar. ...“Devorga surat chizish san’ati Mirzo Ulug‘bek zamonida yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarildi” ... [4]. Temuriylar zamonasida sharqona miniatyura san’atini bir qancha maktablari va uning buyuk ijodkorlari yuzaga keldi. Natijada Temuriylar davrda shakllangan nafis tasviriy san’atning dovrug‘i jahonga yoyiladi. Umuman, bu tarixiy tasviriy san’at asarlarining asosiy qismi bizgacha deyarli saqlanib qolmagan. Ammo ushbu davr tasviriy san’at namunalarning ma’lum va mashhurligi ko‘pchilikka sir emas.

Buyuk mo‘yqalam sohibi Kamoliddin Behzod sharq allomalari Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy kabi mutafakkirlarning asarlarini tasvirlar orqali yanada jonlantirib targ‘ib etadi. Kamoliddin Behzod ishlagan tasviriy san’at asarlari orasida Abdurahmon Jomiy, Husayin Boyqaro, Alisher Navoiy va Shayboniyxon suratlarini ham uchratish mumkin. Behzod va uning ilg‘or zamondoshlari ijodida dunyoviy mavzu etakchi hisoblangan.

Keyingi davrlarda tasviriy va amaliy san’at uyg‘unlashib jonli mavjudotlar ishtrokida mahobatli devoriy rangtasvir asarlari yaratiladi. Samarqand shahridagi Registon ansambilining Sherdor maqbarasidagi sher va ohu ishtrokidagi kompozitsiya bunga yaqqol misoldir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston tasviriy san’ati o‘zining yangicha shakllanish davriga asta-sekin kirib kela boshladi. Asosan bu davrga evropaning ilg‘or tasviriy san’ati an‘analari rus va boshqa xalqlarning vakillari orqali o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

O‘zbekiston tasviriy san’ati mustaqillikka erishganimizdan so‘ng jiddiy rivojlana boshladi. Mamlakatimiz mo‘yqalam sohiblari ko‘pgina ko‘rgazmalarda

faol ishtirok etib, tasviriy san’atimizni yanada kengroq namoyish eta boshladilar. Shuningdek mustaqillik yillarida yoshlarning tasviriy san’at orqali tarbiyalanishiga ularning ilk yoshlik davrlari, bog‘cha yoshidan boshlab e’tibor qaratila boshladi. Bolalar atrofidagi voqelikni o‘zlaricha talqin qilib boradilar. Ularning tasviriy san’at bilan yaqindan tanish bo‘lib borishlari dunyoni to‘g‘ri anglab olishlarida yordam beradi.

Tasviriy san’atni to‘liq tushunishimiz uchun u haqida ma’lum darajada bilimlarga ega bo‘lishimiz kerak. Musavvirlar tamonidan yaratilgan tasviriy san’at asarlarini tomosha qilib, tushunib, ularni badiiy tahlil qilishdan oldin oddiy hayotimizni o‘rab turgan olamga nazar tashlab ko‘raylik. Xo‘sh bugungi kunda tasviriy san’atni hayotimizda tutgan o‘rni qanday? Tasviriy san’atga be’tibor, unga yuzaki qarovchilar, “Rasm chizish ham ishmi?” deguvchilar ham uchrab turadi. San’atshunos olim N. Oydinov o‘zining “Rassom-o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari” monografiyasida tasviriy san’atning o‘rni beqiyos ekanini takidlab shunday yozadi: ...“Bir ko‘z oldimizga keltirib ko‘rsak, hiyobonlar, ko‘chalar, sirk-bog‘lar, hashamatli binolar, barcha-barchasini bezatilishi rassom va haykaltaroshlarning mashaqqatli mehnatlari evaziga amalga oshirilgan. Xonadonlarimizning ichki go‘zalligi, maktablarimiz, kitob, gazeta-jurnallarning tasvirlar bilan mazmunan yanada jonlanishi, hatto bozorlar, savdo do‘konlaridagi har bir xarid qilinadigan buyum va narsalarning bejirim rang-barang bezatilishi, umuman turli-tuman idishlardan etiketkalgacha e’tiborimizni tortadi. Gazmollar, kundalik liboslarning shaklu shamoyili, rangi ro‘yi rassomlarimiz mehnati evaziga boyigan” ... [5]. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, hayotimizni tasviriy san’atsiz tasavvur etish qiyin ekan. Biz bilan bog‘liq bo‘lgan har bir kiygan kiyimimiz, uyimizdagi jihozlarimizni tasvirlarsiz, ranglarsiz tasavvur qila olmasligimizni sezamiz. Chunki har bir jihozlar va ulardagi turli hil naqshlar, amaliy bezaklari, rang va to‘slari insonga o‘zgacha ijobiy tasir etadi. Uyimizni to‘ldirib turgan gilamlar, so‘zanalar, rang-barang pardalar har biri odamga o‘zgacha yaxshi kayfiyat bag‘ishlaydi. Har bir o‘zbek xonadonida bo‘layotgan turli hil bayramlar,

to‘y kabi tadbirlarni umumiy ko‘rinishini badiiy bezatilishi ham insonga ijobiy estetik ta‘sir etadi. Ba‘zi hollarda uylarimizni ichki va tashqi ko‘rinishini yoki to‘yxonalarning bezatishlariga nazar solib qarasaq bu jarayon bevosita tasviriy san‘at bilan bog‘liq ekanligini ba‘zida sezmay ham qolganligimizga amin bo‘lamiz. Yangi olingan har bir buyum, jihozlar ularning did bilan o‘rnatilishi, bezatilishi ham san‘atkorlikni talab etadi. Har-bir tanlangan buyumlarning rangi va ko‘rinishi estetik kayfiyatni oshiradi. Xonadonlarni badiiy bezatilishida har bir jixozning bir biriga mos tushishi, o‘z o‘nida o‘rnatilishi har bir uy egasini qanday nozik did sohibi ekanligini ko‘rsatib turadi. Bundan ko‘rinadiki har bir inson qo‘lida mo‘yqalam ushlamasada, ularning tasviriy san‘at bilan bevosita bog‘liq tarzda yashayotganligidan dalolat beradi. Tasviriy san‘atni inson hayoti uchun qanday muhim jihatlari borligini mana shunday oddiy misollar orqali ham ko‘rishimiz mumkin ekan.

Musavvirlar tamonidan yaratilgan tasviriy san‘at asarlarini ko‘rganimizda, ijodkorning peshona teri, qalb qo‘ri, mehrining tafti bilan yaratilgan serjilo asarlaridan ta‘sirlanamiz. Tasvirlash sirlarini qanday o‘zlashtirgani bilan qiziqamiz. Imkoni bo‘lsa bunday mahorat bilan chizilgan tasviriy san‘at asarlarini qo‘lga kiritish istagi ham paydo bo‘ladi. Ayrim rassomlikni kasb qilmaganlarning ko‘nglidan ham, shunday rasim chiza olish ishtiyoqi, yoki “men ham shunday rasm chiza olsaydim” degan fikrlar paydo bo‘lishi tabiiy. Har bir ijodkor o‘zgacha izlanib, o‘zgacha mehnat qiladi. Ijodkorlar ichki kechinmalari va go‘zal olamini rang va chiziqalar hamda turli shakllar orqali ifodalashga harakat qiladilar. Maromiga etkazib yaratilgan tasviriy san‘at asarlarini tamosha qilinganda u kishilarni beixtiyor o‘ziga jalb etadi. Shunday betakror asarlarga e‘tibor berib qarab har bir kishi ular haqida o‘ziga xos fikr yuritishga harakat qiladi.

Tasviriy san‘atning barcha tur va janrlariga yurtimizda yosh bolalardan tortib keksalargacha alohida qiziqish bilan qarab kelishadi. Davlatimiz tamonidan ham yoshlarni san‘at orqali tarbiyalashga va ularni har tamonlama etuk insonlar bo‘lib

etishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ammo tasviriy san’at asarlaridan etarlicha bahramand bo’lish uchun, tushunish uchun, u haqida fikr yuritish uchun hech bo’lmaganda dastlabki bilimlarga ega bo’lish kerak. Shu sababli tasviriy san’atni o’rganishda nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida ayrim ma’lumotlarni eslatib o’tishga harakat qilamiz.

Avvalo tasvirlash sirlarini yoshlik, bolalik chog’laridan egallashga kirishgan ma’qul. Vatanimizning turli hududlaridagi yoshlar orasida ham tasviriy san’atga qiziqishi yuqori bo’lgan, tasviriy san’atni jon dilidan sevuvchi ulkan maqsadlar bilan xarakat qiladigan yoshlar talaygina. Xuddi shunday tasvirlash sirlarini o’rganishga ishtiyoqi baland yoshlarning qiziqish va intilishlarini vaqtida ilg’ab, ularga to’g’ri yo’l ko’rsatishning ahamiyati kattadir.

Tasvirlash sirlarini o’rganishda avvalo qalamtasvirga oid bilimlarni puxta egallash kerak bo’ladi. Chunki barcha rassomlar tasviriy san’atning qaysi tur va janrida ijod qilmasinlar ular birinchi navbatda oddiy qalamdan foydalanib rasm chiza boshlaydilar. Rasm chizishni endi o’rganuvchilar turli xil badiiy bezaklarni, naqshlarni, odam va hayvon hamda turli qushlar rasmini yoki tabiat manzaralarini tasvirlashga shoshilmasliklari kerak.

Tasvirlashni o’rganishni boshlashda naturaga qarab oddiy qalamlarda rasm chizish tavsiya etiladi. Rasm ishlashni boshlashdan oldin turli yumshoqlikdagi va qattiqlikdagi qalamlardan foydalanishni o’rganib olish lozim. Qalamlarning qattiq va yumshoqligiga qarab tasvirlashning kerakli joyida ishlatish tavsiya etiladi. Rasm chizishni o’rganishda qalamni qo’lda qattiq ushlamasdan bo’sh erkin holda ishlatishga harakat qilish kerak. Oddiy qalamda tasvirlashni o’rganishda bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirib borish imkoniyati ko’p. Chunki oddiy qalamlar bilan tasvirlash jarayonida yo’l qo’yilgan xato va kamchilik joylarini o’chirgich bilan o’chirib qaytadan to’g’rilab chizish imkoniyati bor.

Rasm ishlashni o‘rganmoqchi bo‘lganlar naturalardan foydalanib tasvirlar ishlashni boshlashlari kerak. Naturalar haqida A. S. O‘rolov “Mo‘jiza yaratish san’ati” o‘quv qo‘llanmasida shunday fikrlarni bayon etadi: ... “Agar naturalarni oddiy va murakkab naturalarga ajratadigan bo‘lsak: geometrik shakllardan iborat naturalarni - prizma, piramida, konus, silindr kabi shakllardan tashkil topgan. Uy ro‘zg‘or buyumlari, bino elementlari, mashina detallari va boshqalarini oddiy naturalar, naturalarda geometrik shakllarning bir-biriga kirishib, buzilib yoki bioshakllarga aylanib ketishi, odam va turli jonivorlar, kiyim-kechak, matolarning burishib turishi drapirofka va boshqa shakllar murakkab naturalar deyiladi” ... [6]. Rasm chizish uchun naturadan istalganini tanlash mumkin. Lekin endi rasm chizishni o‘rganayotganlar uchun eng oddiy buyum rasmini chizishdan boshlashni maslahat beriladi. Ikki va undan ortiq naturalar chizish uchun qo‘yilsa uni natyurmort deb ataladi. Natyurmort – fransuzcha jonsiz tabiat degan ma’noni beradi. Natyurmortni tasvirlashda buyumlarning och to‘qligini to‘g‘ri topa bilish, undagi har bir buyumni aniq ko‘rinib turishiga yordam beradi.

Tasvirlashni yaxshi o‘zlashtirish uchun qalamtasvir va rangtasirda etarli darajada xomaki rasm va ranglovhalar bajarish zarur. Xomaki rasmlar ishlashda kerakli bo‘lgan qog‘ozlar etarli darajada pishiq va oq bo‘lishi talab etilmaydi. Agar uzoq muddatli qalamtasvirlar ishlash kerak bo‘lsa sifatli oq qog‘ozlar tanlanadi. Akvarel bo‘yogida ranglavhalar ishlash uchun maxsus sifatli yuzi gadur-budur qog‘azlar tanlanadi. Albatda ma’lum darajada yutuqlarni qo‘lga kiritish va tasvirlashga oid nazariy va amaliy bilimlarni puhta egallash uchun o‘z vaqtida mehnat qilishni ham unutmaslik kerak. Rasim chizishni o‘rganishda xomaki rasmlar ishlashning o‘ziga xos o‘rni bor. Tasvirlashni mukammal o‘rganmoqchi bo‘lganlar xomaki rasmlar ishlamasdan puxta rasm chizishni o‘rgana olmaydi. Xomaki rasmlarni muntazam ravishda ishlamaydigan talabada chizgan rasmida nuqsonlar ko‘pligi sababli o‘zi ishlayotgan tasvirdan ko‘ngli to‘lmaydi. Rasm chizishni o‘rganishda xomaki rasm ishlashdan o‘rinli foydalanish rasm chizish qobiliyatini oshiradi. Ayni damda uzoq muddatli chiziladigan amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ham bo‘ladi. Talabalarni

amaliy mashg‘ulotga tayyorlash uchun ularni avvaliga bir oz muddat engil xomaki rasmlar ishlash mashqlarini bajartirib olish kerak. Shunda rasm ishlovchilar uzoq muddatli amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun tayyor bo‘ladi. Xomaki rasm va uning ahamiyati haqida tajribali pedagog B.Boymetov o‘zining “Qalamtasvir” kitobida shunday yozadi: “Xomaki rasm ma’lum vaqt oralig‘ida kuzatilayotgan natura haqida to‘liq tasavvur berishni maqsad qilib qo‘yadi. Xomaki rasmlar har xil davomiylikda, har xil ishlanishi, ish shart-sharoitlari va rassomning o‘z oldiga qo‘ygan vazifalariga qarab yarim soatli, bir soatli, o‘n minutli va hokazo bo‘lishi mumkin.

Xomaki rasm - bu naturadan tezgina chizgi qilib olishdir; u talabani tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o‘rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi” ... [7].

Talabaning xomaki rasmlarni o‘z vaqtida bajarmasligi unga ancha qiyinchiliklar olib keladi. Ma’lum bir vaqt oralig‘ida bajariladigan rasm chizish jarayoniga har qancha vaqt va mehnat sarflansada, ish beo‘xshov bo‘lib qolaveradi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, qoralama va qalamchizgilarni muntazam ravishda bajarib yurgan talabalar rasm ishlash jarayonida ishni davom ettirilmaganidan qiynalib, qolmaydi. Rasm ishlash jarayonining ma’lum bosqichida talaba chizishdan to‘xtab qolishi ya’ni ishni qanday davom ettirishni bilmay qolish undagi kamchiliklarni ko‘ra olmay qolish holatlari uchramaydi. Yana shunga e’tibor berib qaraydigan bo‘lsak bu talabalarda o‘z ustida muntazam ishlagani tufayli, bilim, ko‘nikma, malakalar shakllanib boradi. Buning natijasida chizayotgan rasmiga qancha vaqt ajratsa shunchalik jilolanib-jonlanib boraveradi.

Qalamtasvir san’atini o‘rganish tasviriy san’at asarlarini tushunib etishda asosiy qadamdir. Shuningdek qalamtasvir tasviriy san’atning asosidir deb ham bechiz aytilmagan. Qalamtasvirni puxta o‘rganib olgan yoshlar rangtasvirda

bo‘yoqlar yordamida tasvirlar ishlashda ba’zi bir qiyinchiliklarni oson, qiynalmasdan engib o‘tadilar.

Rangtasvir - haqiqiy hayotni aks ettirib, tamoshabinning fikri va hissiyotlariga ta’sir o‘tkazuvchi tasviriy san’at turlaridan biridir. Uzoq muddatli rangtasvir amaliy mashqlarini bajarishda, qalamtasvirda xomaki rasmlar ishlash kabi rangtasvirda ham ranglovhalar ishlab turishning ahamiyati kattadir. Bo‘lajak rassomning muntazam ravishda ranglovhalar bajarishi natijasida, unda rang ko‘rish, rang ajrata olish, rangni tanlay olish, hamda ranglardan o‘rinli foydalana olish, rang munosabatlari bilan ishlash qobiliyatlari rivojlanadi. Tasviriy san’atda asarlar yaratishda rang munosabatlari bilan ham ishlashni bilish kerak. Ranglovhalar ishlash jarayonida tajribalar oshgan sayin rang munosabatlari bilan ishlash ham rivojlanib boradi. Tasviriy san’at mashg‘ulotlarida talabalarning rangtasvirga oid nazariy va amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z vaqtida egallab borishlari natijasida asta-sekinlik bilan ijodiy qobiliyatlari rivojlanib, bo‘yoqlar bilan ishlash texnologiyasini ham yaxshi o‘zlashtirib oladilar.

Bo‘lajak rassom ishlagan eng yaxshi ranglovhalarini har doim imkon qadar o‘ziga ko‘rinadigan joyga qo‘ysa unga ilhom va kuch bag‘ishlab turadi. Rassom o‘zi maroq bilan chizgan ranglovhalarini ko‘rganda qaysidir jihatlaridan zavq oladi. Bu esa asta sekinlik bilan zavqlanish va ilhomlanish natijalari yanada ijod qilishga undaydi. Maromiga, etkazib ishlangan rangtasvir ijodiy ishi avvalo, rassomni o‘ziga ma’qul bo‘ladi. Ijodkorni zavqlantirgan, ilhomlantirgan rangtasvirlar, albatta, tomashabinni ham diqqatini tortadi. Mana shunday izlanishlarni davom ettirib borish, rangtasvir asarlarini vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Tasviriy san’at sir-asrorlarini o‘rganish bilan birgalikda taniqli rassomlar hayoti va ijodini ham o‘rganib borish kerak. Buning uchun tasviriy san’atga oid adabiyotlar bilan tanishish, rassomlar ko‘rgazmalariga borish, rassomlar bilan uchrashuvlarda ishtirok etish, suhbatlashish, tasviriy san’at sirlarini yaqindan anglashga yordam beradi.

Tasvirlash sirlarini o‘z vaqtida egallab borish etuk rassomlar tamonidan yaratilgan san‘at asarlarini badiiy tahlil qilishga yaqindan yordam beradi. Tasviriy san‘at asarlarini tushunishning bir oz osonligi shundaki rassom, o‘z fikri va mulohazalarni tahlil qilib umumlashtirib bo‘lgan, voqeiyliklarni tomoshabin hukmiga havola qiladi. Tamoshabin tasviriy san‘at asarlariga murojaat qilar ekan, rassom asarlarida nima chizilgan va bu bilan rassom nima demoqchi ekanligini bilishga harakat qiladi. Kimdir esa surat “o‘xshaydi” yoki “o‘xshamaydi”, “yaxshi”, “yomon” degan gapdan nariga o‘tmaydi. Bunday asarga baho berish me‘zoni tasviriy san‘atga befarq bo‘lgan ba‘zi kishilarning badiiy asarni kuzatishida ko‘rinadi. Tasviriy san‘at asarlarini badiiy taxlil qilishning o‘ziga xos tamonlari bor. Ba‘zida tasviriy san‘atdan etarli darajada bilim ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassislar ham ko‘zi tushgan har qanday tasviriy san‘at asarini tezgina tahlil qiloladilar deb aytib bo‘lmaydi. Chunki tasviriy san‘at asarlarini tahlil qilishning o‘ziga yarasha murakkablik tamonlari bor. Tomoshabin asar nomi, asar muallifi, asarda qaysi davr yoki vaqtni o‘zida ko‘rsatib berayapti, bularning hammasini bilishi lozim. Tarixiy janrga oid san‘at asarlaridan birini badiiy tahlil qilishga harakat qilib ko‘ramiz. Tarixiy janrda ishlangan tasviriy san‘at asarlarida, biz uzoq o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea-hodisalar, tarixiy obrazlar, xalqlarning turmush-tarzi va ularning madaniyati haqidagi tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin. Tasviriy san‘atda ko‘plab tarixiy shaxslarning obrazlarini yaratgan mo‘yqalam sohibi O‘zbekiston xalq rassomi, professor Malik Nabievning “Sohibqiron Temur” portreti bilan yaqindan tanishishga harakat qilamiz. Buning uchun avvalom bor Sohibqiron Amir Temur va uning hukmronlik qilgan davri haqida yetarli bilimga va tushunchaga ega bo‘lishimiz kerak. Bu davrda ilm fan, san‘at va madaniyat yuqori darajada taraqqiy etganligi ma‘lum. O‘z davrida Amir Temur Samarqandni yirik madaniyat markaziga aylatirgan. Bu erda ko‘plab bog‘lar yaratilgan. Ayrim qasrlarning devorlari turli tasviriy san‘at asarlari bilan bezatilganligi haqida fikrlar mavjud. Rassom Malik Nabievning ko‘plab portretlarida buyuk siymolar obrazi zamonaga hamohang

darajada gavdalanganligini ko‘ramiz. Rassomning shunday asarlaridan biri “Sohibqiron Temur” portretidir. Rassomda bu portretini yaratish istagi 1941-yilda paydo bo‘ladi. Afsuski bu davr “Sohibqiron Temur”ning obrazini yaratishga imkon bermas edi. Rassom ellik yildan ortiq vaqt ichida Amir Temur obrazini har tamonlama o‘rganib ilmiy izlanishlari asosida materiallar to‘plab boradi. Mustaqillikga erishgan yillarimizdanoq Vatanimiz tarixida ilm fan, san‘at, madaniyat, adabiyot, ma‘naviyat va ma‘rifatga bo‘lgan e‘tibor oshdi. Natijada bunyodkorlik ishlariga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan buyuk ajdodlarimizni anglay boshladik. Mo‘yqalam sohibi M. Nabievga ham bu vaqtda “Sohibqiron Temur” obrazini yaratish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Musavvir bu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda “Sohibqiron Temur” obrazini yaratishga jiddiy kirishadi. Xullas bu borada ko‘plab ishlagan xomaki rasmlari, qalamchizgilari, ranglovhalari, rangtasvir va kompozitsiyalaridan foydalanadi. Rassom o‘zining fiklariga to‘la ishongandan so‘ng, tarixiy dalillarga tayangan holda bu portretni rangtasvirda nihoyasiga etkazishga muvaffaq bo‘ladi. “Sohibqiron” siymosi jamlangan portretda takrorlanmas obrazni ko‘ramiz. Portretda bamaylihotir qilichga suyangan holda tasvirlanishi Sohibqironning mashaqqatli jangu-jadallarda mardonavor o‘tganligini bildirib turibdi. Portretdagi Amir Temur qiyofasida mag‘rurlik va kuch-qudratga ega ekanligi uning xotirjam holatida aniq govdalangan. Asarning orqa fonida sharqona bezatilgan shoh saroyining bir bo‘lagi derazadan Samarqand shahrining manzarasi ko‘rinadi. Devordagi fonda naqshin bezaklar, Sohibqiron o‘tirgan saltanat kursisining badiiy boyligi, shuningdek Amir Temur egnidagi liboslarning boy ko‘rinishi tomoshabinni zamona haqida to‘liqroq tushunchaga ega bo‘lishiga yordam beradi. Amir Temur egnidagi oq zarrin oltin bezakli xalat tarzidagi libosi o‘ziga xos bir jiddiy ma‘noni ifodalaydi. Bu go‘yoki uzoq davrdan so‘ng mustaqillik tufayli Amir Temurning pok g‘oyalari, jumladan adolatli faoliyati yorug‘likka chiqqanini hikoya qilayotgandek.

Malik Nabiev buyuk inson Amir Temur obrazini tasvirlash borasida katta muvaffaqiyatni qo‘lga kiritadi. Temurni ilm, san‘at ahillariga homiylik qilgan

ma’rifat homiysi ekanini ham ifodalay oldi. Xullas, Malik Nabiev sharqona xarakterga ega bo‘lgan Amir Temurni uzoq va mashaqqatli jangu jadallardan so‘nggi holatdagi obrazini tasvirlashga erishgan.

O‘zbek diyorida Malik Nabiev kabi etuk musavvirlarni ko‘plab misol keltirishimiz mumkin. Ulardan O‘ral Tansiqbaev, Abdulhaq Abdullaev, Rahim Ahmedov, Javlon Umarbekov, Laylo Salimjonova, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, G‘ofir Abdurahmonov, Ortiqali Qozoqov, Nuriddin Kalonov, Asliddin Isaev, Nodira Oripova kabi boshqa ko‘plab rassomlarni aytish mumkin.

Maromiga etkazib ishlangan tasviriy san’at asarlari kishi ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etishini so‘z bilan ifoda etish qiyin. Albatta har – bir tasviriy san’at asarini ko‘z bilan ko‘rib, qalb bilan sezib his etish kerak. Tasviriy san’atni inson hayotida tutgan o‘rni haqida xulosa qilar ekanmiz quyidagi fikrlarni takidlash to‘g‘ri bo‘ladi. Tasviriy san’at insonlar qalbida estetik jixatlarini rivojlantirib tariximizga, milliy urf-odatlarimizga, Vatanga, tabiatga bo‘lgan muhabbat oshishida, qo‘yingki o‘zligimizni har tamonlama to‘laqonli anglashda yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Oydinov N. O‘zbekiston tasviriy san’ati tarixidan lavhalar. –T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1997. – 13 b .
2. Hasanov R. Tasviriy san’at asoslari. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa –ijodiy uyi. 2009.- 64 b.
3. Bo‘latov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.: “Mehnat”, 1991. – 143 b.
4. Naim Norqulov, Ilyos Nizomiddinov. Miniatyura tarixidan lovhalar. –T.: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1970. – 57 b.
5. Oydinov N. Rassom-o‘qituvchilarni tayyorlash muammolari. –T.: “O‘qituvchi”. 1997.-120 b.
6. O‘rolov S. Mo‘jiza yaratish san’ati. –T.: “Mehnat” nashriyoti 1996. – 9 b.
7. Boymetov B. Qalamtasvir. –T.: “Musiqqa” nashriyoti 2006. –197 b.